

Tashkent shahrida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-fevral oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-fevral oylarida, Toshkent shahrida jami 8 726,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 110,3 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %
Toshkent sh.	8 726,1	110,3
Bektemir	196,6	131,8
Mirzo Ulug'bek	734,9	97,3
Mirobod	959,2	142,9
Olmazor	605,2	120,1
Sergeli	388,8	152,6
Uchtepa	286,5	159,6
Chilonzor	570,1	129,8
Shayxontoxur	498,9	101,1
Yunusobod	970,1	72,7
Yakkasaroy	997,9	116,4
Yangi xayot	273,6	160,7
Yashnobod	710,3	104,5
Taqsimlanmagan hajim	1 533,9	108,1


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent shahrida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 69,8 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 106,4 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 14,1 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 22,3 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 18,6 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 117,5 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd. so'm	1 069,6	471,8	607,6
<i>o'sish sur'ati, %</i>	89,5	39,5	109,6
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd. so'm	3 468,0	758,7	1 015,7
<i>o'sish sur'ati, %</i>	112,8	24,7	109,6
Norasmiy sektor hajmi, mlrd. so'm	1 334,6	-	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	106,7	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2 149,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 106,9 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,8 % ga kamayib, 24,6% ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 60,1 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 179,9 % ni tashkil etgan holda 5 242,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 15,3 % ni yoki 1 334,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 106,7 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



**Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd. so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Toshkent sh.	2 149,0	5 242,5	1 334,6	106,9	112,8	106,6
Bektemir	36,9	146,4	13,3	80,5	155,9	141,3
Mirzo Ulug'bek	99,5	544,9	90,5	121,3	91,0	121,2
Mirobod	344,1	555,9	59,2	2,3 m.	119,4	99,8
Olmazor	239,2	297,3	68,7	138,6	119,8	82,6
Sergeli	58,0	262,2	68,7	9,6 m.	139,9	112,0
Uchtepa	51,6	204,7	30,3	-	137,6	98,0
Chilonzor	203,9	325,4	40,7	2,6 m.	101,7	96,4
Shayxontoxur	106,8	314,4	77,7	49,0	146,2	128,9
Yunusobod	244,1	587,8	138,3	40,3	96,0	118,1
Yakkasaroy	281,4	653,6	63,0	101,6	125,1	108,3
Yangiheyot	40,1	183,7	49,7	85,6	2,2	125,5
Yashnobod	133,6	521,4	55,3	160,4	97,0	93,6
Taqsimlanmagan hajim	309,8	644,7	579,4	123,8	105,3	104,1

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Sergeli mos davriga nisbatan 9,6 m.), Chilonzor tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 2,6 m.), va Mirobod (2025-yilning mos davriga nisbatan 2,3 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Bektemir tumani (155,9 %), Shayxontoxur tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 146,2 %) va Sergeli tumanida (139,9 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi Tashkent shahri Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joyi tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joyi xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-ion-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M.Sabirova
71 203-88-18 (3522)

Manzil:

